

## O'ZBEKISTONDA KONCHILIK SANOATI

### **Rajabov Shahboz Xolmamat o'g'li**

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistent*

*Tel:998(94)515-00-15 E-mail: [shaxbozrajabov515@gmail.com](mailto:shaxbozrajabov515@gmail.com)*

### **Narziboboyev Anvar Abduxoliq o'g'li**

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi*

*Tel:998(99)2210122 E-mail: [narziboboyevanvar@gmail.com](mailto:narziboboyevanvar@gmail.com)*

### **Meyliyev To'lqin Meyli o'g'li**

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi*

*Tel:998(99)0965720 E-mail: [tolqinmeyliyev729@gmail.com](mailto:tolqinmeyliyev729@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada konchilik sanoatini hayotimizda tutgan o'rni unga bo'lgan jaxon miqyosidagi talabgorliklar, konchilik sanoatining rivojlanish bosqichlari, yetakchi o'rindagi konchilik korxonalariga ega bo'lgan davlatlardagi holatlar o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *gidromineral, ultraabissal, abissal, gipabissal, nometall, radioaktiv metal, yonuvchi slanetslar.*

Jaxon miqyosida insonlarning sonining ko'payib borishi Inson extiyojining kundan kunga ortib borishini yuzaga keltiradi va tabiy resurslarga bo'lgan extiyoj sezilarli darajada o'sadi . Konchilik sanoati esa bu extiyojlarning deyarli 85%ni to'la qonli ravishda egallab kon sanoatiga bo'lgan talablarning oshishini vujudga keltiradi. Konchilik sanoati - foydali qazilmalar konlarini qidirish, ularni yer ostidan qazib olish, dastlabki qayta ishlash - boyitish bo'yicha ishlab chiqarish tarmoqlari majmui. Kon sanoati quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi:

1) yoqilg'i (neft, tabiiy gaz, ko'mir, slanets, torf) qazib olish sanoati; 2) ruda (temir rudasi, marganets rudasi, rangli metallar, asil va noyob metallar rudalari, radioaktiv elementlar) qazib olish sanoati; 3) nometall qazilma va mahalliy qurilish materiallari sanoati (marmar, fanit, asbest, bo'r, dolomit, kvarsit, kaolin, gips, mergel, dala shpati, ohaktosh va boshqalarni qazib



olish); 4) kon-kimyoy (apatit, kaliy to'zlari, nefelin, selitra, oltingugurt kolchedani, bor rudalari, fosfat xom ashyosi qazib olish) sanoati;

5) gidromineral suvlar (mineral yer osti suvlari, suv ta'minoti va boshqa maqsadlar uchun suv) olish sanoati. Konchilik sanoati 18-asr oxiri — 19-asr boshlaridan jadal rivojlana boshladi. 20-asr oxirlariga kelib dunyoda yiliga 5 mlrd. t dan ziyod ko'mir, 3 mlrd.t dan ziyod neft, 2,3—2,5 trln. m<sup>3</sup> tabiiy gaz va 1 mlrd. t temir rudasi qazib olinmoqda. Boshqa turdagi mineral xom ashyoni qazib olish hajmi kamroq. Jumladan, dunyoda keyingi vaqtda yiliga 2,2—2,3 ming t oltin qazib olinmoqda. Jahonda uran yetkazib beruvchi yirik mamlakatlar qatoriga Kanada, Avstraliya va JAR, kaliy tuzlari bo'yicha Kanada va Germaniya davlatlari kiradi. Temir rudasini qazib olish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham (AQSH, Kanada, Avstraliya, JAR, Shvetsiya, shuningdek, Rossiya va Ukraina), rivojlanayotgan mamlakatlarda ham (Xitoy, Braziliya, Hindiston, Venesuela, Liberiya) keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

Xalqaro geografik mehnat taqsimotining chuqurlashishi va yanada rivojlanishi dunyoda 6 ta yirik Kon sanoati markazlarining shakllanishiga olib keldi. Ularning hissasiga jami qazib olingan xom ashyo va yoqilg'ining 3/2 qismi to'g'ri kelmokda. Shunday mamlakatlar qatoriga AQSH, Kanada, Avstraliya, JAR, Rossiya va Xitoy kiradi. Kon sanoati ko'pchilik boshqa mamlakatlarda ham rivojlangan. Lekin ularda xom ashyo yoki yoqilg'ining bir-ikki turi qazib olinadi, xolos. Jumladan, dunyoda ko'mir qazib olishda Polsha, mis rudasi qazib olishda Chili, qalay rudasi qazib olishda Malayziya, neft qazib olishda Fors ko'rfazi mamlakatlari yuqori o'rinlarni egallaydi. Tog'-kon sanoatining o'ziga xos xususiyati shundaki, foydali qazilmalarning o'rganilgan konlari o'rnida quyidagilardan iborat kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi:depozitni baholash,konni o'zlashtirish loyihasini tuzish uchun ma'lumotlar yig'ish,loyiha bo'yicha konlar joylashgan joyda tog'-kon korxonasini tashkil etish. Geologik davr jihatidan Foydali qazilmalar konlari ichida arxey, proterozoy, rifey, paleozoy, mezozoy va kaynozoy yoshidagi konlar farq qilinadi. Shakllanish joyi jihatidan geosinklinal (burmalagan oblastlar) va platformalardagi konlar bo'ladi. Qanday chuqurlikda paydo bo'lishiga ko'ra, Foydali qazilmalar konlari ultraabissal (10-15 km dan chuqur), abissal (3-5 km dan chuqur), gipabissal (1,5 km chuqurlikda joylashgan) konlarga bo'linadi. Foydali qazilmalar uch guruhga: metall, nometall va yonuvchilarga bo'linadi. Metall Foydali qazilmalar sof metallar, qora, rangli, siyrak va radioaktiv metall rudalari, shuningdek, nodir yer elementlaridan iborat. Nometall Foydali qazilmalarga konchilikkimyo xom ashyosi (turli tuzlar, gips, barit, oltingugurt, fosforitlar, apatitlar), olovbardosh, elektrotexnik,

pyezooptik, issikdik va tovushni izolyatsiya qiluvchi, kislota va ishqorlarga chidamli xom ashyo, qurilish materiallari, qimmatbaho va texnik toshlar kiradi. Neft, yonuvchi gaz, toshko'mir va qo'ng'ir kumir, torf, yonuvchi slanetslar yonuvchi Foydali qazilmalarga mansub bo'lib konchilik sanoati globallashtirilgan zamonamizning yetakchilaridan biri bo'lib kelmoqda .

O'zbekiston Respublikasi jahonda Kon sanoatida yuqori rivojlangan mamlakatlar qatoridan mustahkam o'rin olgan. Hozirga qadar O'zbekistonda hammasi bo'lib 2,7 mingdan ziyod istiqbolli turli foydali qazilma konlari aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral-xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 216,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 69,6 % ini tashkil etdi. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati ("NKMK" AJ) jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to'rttaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari to'liq amalga oshiriladigan sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kon-transport va texnologik uskunalar, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlantirilgan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir. "NKMK" AJning "999,9" soflikdagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo'yicha birjalarida O'zbekistonning brendiga aylandi.

#### **Xulosa:**

Kon-metallurgiya sanoati mahsulotlari negizida ilg'or jahon amaliyoti asosida yuqori qiymatli konchilik mahsulotlarini qazib chiqarish quvvatlarini tashkil etish, unga bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish hamda ushbu yo'nalishning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish konchilik sanoatiga bo'lgan talablarni to'la qonli ravishda to'ldira olishda izlanuvchan , yuqori amaliy va nazariy bilimga ega bo'lgan yosh mutaxassislarni yetishtirib chiqarishda oliy ta'limning o'rni beqiyosdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Саййидкосимов С.С., Казаков А.Н., Хакбердиев М.Р. Анализ напряженно- деформированного состояния горного массива // Республиканская научно- техническая конференция на тему: Горно-металлургический комплекс: достижения, проблемы и перспективы инновационного развития». Навои, 2016. - С.14-15

2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Muruntov\\_oltin\\_koni#/media/Fayl:Muruntov\\_mine.JPG](https://uz.wikipedia.org/wiki/Muruntov_oltin_koni#/media/Fayl:Muruntov_mine.JPG)